



**O‘ZBEK YOZUVI TARAQQIYOTI: GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA
TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi

NamDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek yozuvining tarixiy taraqqiyoti, grafika tizimlarining almashinuvi va orfografik me‘yorlarning shakllanish jarayoni yoritilgan. Asarda arab, rus va lotin grafiklari asosidagi yozuv tizimlarining o‘ziga xos jihatlari, ularning o‘zbek tili orfografiyasiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek orfografiyasining asosiy prinsiplari — fonetik, fonematik, morfologik, tarixiy-an‘anaviy va differentsiatsiya prinsiplari ilmiy jihatdan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek yozuvi, grafika, orfografiya, yozuv islohoti, lotin grafikasiga o‘tish, orfografiya prinsiplari, til tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое развитие узбекского письма, процесс смены графических систем и формирование орфографических норм. Анализируются особенности письма на основе арабской, русской и латинской график, а также их влияние на узбекскую орфографию. Кроме того, подробно раскрываются основные принципы узбекской орфографии — фонетический, фонематический, морфологический, историко-традиционный и дифференциационный.

Ключевые слова: узбекское письмо, графика, орфография, реформа письма, переход на латиницу, принципы орфографии, языковая система.

Annotation: This article explores the historical development of the Uzbek writing system, the transition between different graphic systems, and the formation of orthographic norms. The study analyzes the features of the Arabic, Cyrillic, and Latin-based Uzbek scripts and their impact on Uzbek orthography. Furthermore, the main principles of Uzbek orthography — phonetic, phonemic, morphological, historical-traditional, and differentiation — are scientifically explained.

Keywords: Uzbek writing, graphics, orthography, script reform, transition to Latin script, orthographic principles, linguistic system.w

Kirish. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boyligi bilan xarakterlanadi: bu davrda o‘zbek yozuvi bir necha marta tub isloh qilindi - bir grafik tizimdan boshqagrafik tizimga ko‘chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdan-kam uchraydi. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi to‘rt davrni o‘z ichiga oladi:

- 1-davr – arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929)
- 2-davr – lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929- 1940)
- 3-davr – rus grafikasiga asoslangan yillar (1940- 1993)



4-davr – ikki yozuvlilikka (rus va lotin grafikalaridagi yozuvlarga asoslangan yillar) (1993-2000)

Tahlillar va natijalar.

Birinchi davrning 1917-yilgacha bo'lgan bosqichda yozuvni islo qilishga bo'lgan harakatlar kuzatilmaydi. Asosiy e'tibor savod chiqirish, o'qish-o'qitish ishlarini tashkil etishga, kitoblar yaratishga qaratildi. Jumladan: «Ustodi avval» (Saidrasul Saidazizov, 1902), «Birinchi muallim» (Abdulla Avloniy 1911), «Ikkinchi muallim» (Abdulla Avloniy, 1912), «Rahbari soniy» (Abdulxo'ja Saidmuhammadxo'jaev, 1916), «Imlo» (Ashurali Zoxiriy, 1916) va boshqalar. 1918 yildan keyingi davrlarda alifbo va imloni milliyalashtirish, soddalashtirish, boshqa grafik tizimga ko'chirish harakatlarning yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi. 1918 yil Toshkentda «CHig'atoy gurungi» jamiyati tashkil qilindi. Unga Fitrat va Qayyum Ramazanov boshchilik qildi. 1922 yil Toshkentda Turkiston Respublikasi «O'zbek madaniyat va maorifi xodimlari qurultoyi» bo'lib o'tdi. 1928 yil 11 avgustda yangi lotinlashtirilgan o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb e'lon qilindi. 1940 yil 5-8 mayda rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga qildi. 1993 yil 2 sentyabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida «Lotin yozuviga asoslangan» o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» qonun qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda ushbu qonunga ayrim o'zgarishlar kiritildi. 1995 yil 24 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 399-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari hamtasdiqlandi. Yangi alifboga to'la o'tish muddati 2005 yil 1 sentyabriga qadar uzaytirildi. O'zbekistonda shu tariqa ma'lum muddat ichida (1995- 2005) ikki yozuvlilik holati yuzaga keldi. Amalda (kirillcha) o'zbek yozuv fonografik xarakterdagi grafik tizim bo'lib, u tovush tili birliklarining (fonema, bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning) maxsus grafik belgilar –grafemalar vositasida ifodalanishiga asoslanadi. Bu yozuv grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topgan. Harfiy belgilarning tayanch manbai alifbodir. Alifboda muayyan til yozuvi uchun qabul qilingan harflar miqdori, shu harflarning qo'lyozma va bosma shakllari, ularning joylashish tartibi, nomi, qaysi tovushni (fonemani) ifodalashi yoxud qanday vazifani bajarishi oldindan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Noharfiy belgilar inventari tinish belgilari, urg'u belgisi, raqamlar va ma'lum sohalargagina aloqadar bo'lgan ramziy belgilardan tarkib topadi. Grafik birliklar bilan tovush birliklari o'rtasidagi aloqa faqat kodlashtirish orqali amalga oshiriladi: Masalan: «a» harfi «a» tovushini, 2 raqami «ikki» so'zini, nuqta tinch ohangni, so'roq (?) belgisi so'roq ohangini ifodalaydi. [1.54-78-b.]

3. Grafik belgining tildagi muqobili (kodlashtirishga asos bo'lgan til birligi, referenti) shu belgining ifodalanuvchisi hisoblanadi. Grafemalar o'zlarining tildagi (referenti) muqobili va yozuvdagi vazifalariga ko'ra fonografema, prosodografema, logografema, orfografik belgi va signalizator kabi tiplarga bo'linadi. 1. Fonografemalar (fonogrammalar) segmental fonetik birliklarni (fonemalarni, bo'g'inlarni) ifodalashga

asoslanadi. Ular o'z navbatida monograf (bir harf birikmasidan iborat grafema) diagraf (ikki harf birikmasidan iborat grafema), trigraf (uch harf birikmasidan iborat grafema)larga bo'linadi. Masalan:

k, l, m-monograf

ng, shch- diagraf

Uch yoki to'rt harf birikmasidan iborat poligraflar kirillcha o'zbek yozuvi sistemasida yo'q

1. Prosodemografemalar. (Prosodemogrammalar) Grafemalarning bu tipi fonografik yozuvning noharfiy turlarini

birlashtiradi hamda tovush tilining ritmik-intonatsion vositalarini (urg'u, ohang, melodika, pauza kabilarni) yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

a) ijtimoiy aloqani (fikir almashuv jarayonini) yozuvda to'g'ri 'ri ifodalash uchun;

b) maqsad, mazmun yoki ma'noni, ularning o'ziga xos «rang» va «tus» larini yozuvda

aniq ifodalash uchun;

v) gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari o'rtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;

g) yozma nutqning ixcham va ravonligini ta'minlash uchun;

d) yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun. O'zbek tilshunosligida tinish belgilarni quyidagi 10 ta turi grafikasining markaziy sistemasiga kiritiladi:

Nuqta (.)

So'roq belgisi (?)

Undov belgisi (!)

Nuqta vergul (;)

Ko'p nuqta (uch nuqta) (...)

Vergul (qo'sh vergul) (; yoki ,;)

Ikki nuqta (bayon belgisi) (:)

Tire (qo'sh tire) (- yoki --)

Qavs (qo'sh qavs) (), []

Tirnoq (qo'shtirnoq) (“ ”)(«»)

Logografemalar -(logogrammalar) Grafemalarning bu tipi tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo'lgan so'zlarni yozuvda ifodalashga asoslanadi. Bunday belgilar aslida ideografik (semasiografik) yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi, ammo ulardan fonografik yozuv tarkibida ham foydalanadi.[2.98-104-b.] Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida logografemalarning quyidagi turlari ishlatiladi:

Raqaamlar – son turkimiga mansub so'zlarning ma'nolarning ifodalovchi

logogramalar. Ularni ikki turli: a) g'arbiy arab (g'ubor) raqaamlari: 0, 1, 2 10000 va o' b) rim

raqamlari: IV (4); V (5); XIII (13); <(15), D (500) kabi. Simvollar – ilm-fanning ma'lum

sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik belgilar:

a) matematik simvollar – $\sqrt{}$ (ildiz), Q(qo'shuv), -(ayiruv), x(ko'paytiruv) kabi. b) astronomik simvollar – ☉ (quyosh), s (oy), CH (Yupiter), ♀ (Venera, Zuhra)

v) kimyoviy simvollar - ☉ (oltin), s (kumush), ♂ (temir)

g) botanik simvollar: (androtsey changchilar)

☉ (bir yillik qsimliklar)

h) (buta)

l(daraxt)

o (kuzgi o'simlik)

Orfografik belgilar –to'g'ri yozish normalarini ta'minlashda qo'llanadigan maxsus noharfiy grafik vositalar. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida bunday belgilarning bir turi mavjud: Defis – juft va takroriy so'zlar orasiga qo'yiladigan gorizantal (tiredan qisqaroq) chiziqchadir. Masalan: erta – kech, katta - kichik kabi. 5. Signalizatorlar – o'z referentiga (tovush tilidagi fonemasiga) ega bo'lmagan, ammo sintagmatik planda o'zidan oldin kelgan harf bilan birikib, bitta qo'shma grafema (digraf) hosil qiladigan belgilar.[3.77-85-b.] O'zbek alifbosidagi ayirish (p) va yumshatish (g') belgilari ana shunday signalizatorlar sirasiga kiradi. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvining grafik tahlili bo'yicha xulosalar: yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi fonografik (Harf- tovush) yozuv tipiga mansub bo'lsa-da, amalda u ideografik (semasiografik) yozuv elementlari bilan qorishgan holda qllanib kelmoqda. Bu tabiiy bir holdir, chunki yozuvning funksional- uslubiy xususiyatlari, yozma matnning grammatik- kompozitsion qurilishi fonografik va semasiografik yozuv birliklardan kompleks holda foydalanishni taqozo qiladi. Bu hol yozuvning grafik «to'qima»sida fonografema, prosodemografema va logografema kabi grafema tiplarining hamda signalizatorlik funksiyasida qo'llanadigan qator maxsus belgilarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvi ham fonografik xarakterdagi tizim bo'lib, grafik xususiyatlari quyidagicha: o, q, ğ, h grafemalari monosemantik xarakterda; ular faqat «q» «q» «g'» «o'» fonemalarni ifodalaydi.

2. Digraflar (analitik grafemalar) – sh, ch, ng. Amaldagi (kirillcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlarining qiyosiy tavsifi. 1. Har ikkalar yozuv tizimida monograflar ko'pchilikni tashkil qiladi, bu hol yozuvda harf va tovush o'rtasida simmetriyani ta'minlaydi. maktab (fonema- 6 ta, grafema- 6 ta, Harf – 6 ta)

maktab (fonema- 6 ta, grafema- 6 ta, Harf – 6 ta)

Har ikkila yozuvda polisemantik monograflar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu hol alifbodagi Harflar miqdorini ko'paytirmaslik imkonini beradi, hamda yozuv texnikasidan (yozuv mashinkalari, kompyuter apparatlaridan) foydalanishni osonlashtiradi.

3. Amaldagi o'zbek yozuvida sintetik grafema (e, yo, yu, l,) va bir qator analitik grafemalar (ng, shch, tya, lyu, lyo...) bor. Bunday grafemalar yozma nutqda fonetik –grafik asimmetriyani yuzaga keltiradi. Masalan: yelkan – fonemalar – 6 ta, grafemalar – 5 ta, Harf – 5 ta. salyut – fonemalar – 5 ta, grafemalar-4 ta (lyu – bitta analgrafema hisoblanadi) Harflar-5 ta. yengil – fonemalar- 5 ta, grafemalar – 4 ta (e-sintetik, ng-analitik grafema), Harflar -5 ta

Amaldagi o'zbek yozuvida adabiy tilni 6 ta unli fonemasi uchun 10 ta harf (i, g', a, u, q, o, ye, yo, yu, ya), lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi alifbosida esa shu 6 unli uchun 6 ta Harf (i, a, u, o, o, ye,) belgilangan. 5. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvida rus tili orqali o'zlashgan so'zlar tarkibidagi qattiq va yumshoq undoshlarni farqlash sistemasi bor, bu sistema qattiq undoshni ifodalovchi harflardan so'ng a, o, u, harflarining, yumshoq undoshlarni ifodalovchi harflardan so'ng esa i, ye, yo, yu, ya, harflarining qo'llanishiga asoslanadi. Yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek yozuvida esa bunday sistema yo'q, bunga o'zbek tili konsonantizmida qattqlik – yumshoqlik oppozitsiyasining (ziddiyatining) yo'qligi asos qilib olingan. 6. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida ayirish (p) belgisi bor. Lotin grafikasi asosida yangi o'zbek yozuvida esa bu belgi (daakritik harf) yo'q: uning vazifasi tutuq belgisi () zimmasiga yuklangan ta'na – tana.[4.32-36-b.]

Yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek yozuvida analitik grafemalarning (digraflarning) ko'pligi (sh, ch, ng, ts, ta, b), shuningdek, tutuq belgisi () va o, g', kabi harflarni mavjudligi yozuvda fonetik – grafik asimmetriyani kuchaytiradi, hatto so'zlarning yozuvdagi o'tik –grafik tasvirida ortiqcha oraliqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, bu hol yozuvning pedagogik va estetik jihatlariga bir qadar salbiy ta'sir qiladi: cho'g' - chog, g'o'za – goza, bo'g'moq- bogmoq kabi. Bundan shunday xulosa qilish mumkin: yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek yozuvining grafik tizimini shakllantirishda asosiy e'tibor uning milliylik pozitsiyalarini mustahkamlashga, yozuv texnikasidan, ayniqsa, kompyuter apparatlaridan foydalanishni osonlashtirishga qaratilgan, ammo yozuvning pedagogik va estetik jihatlariga oid ayrim talablar bu jarayonda e'tibordan chetda qolgan. I. Orfografiya (grekcha orthos-«to'g'ri »grapho «yozaman») yozuv sistemasining ikkinchi komponenti bo'lib, u to'g'ri 'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi belgilar bilan farqlanadi; grafika qoidalari kodlashtirishga, orfografiya qoidalarni esa tanlashga ososlanadi. CHunonchi, odam so'zida «d» ning savat so'zida esa «t» ning yozilishi «d» va «t» harflarining grafikada kodlashtirilgan fonemalariga mos, shu sababni bu ikki so'zning yozilishi grafik printsipga tayanadi. Savod so'zida esa boshqacharoq holatga duch kelinadi: so'z oxiridagi «d» jarangsiz «t» qtadi (savot tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: savod (fonematik printsip asosida) – savot (fonetik printsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me'yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o'zbek orfografiyasida savod deb yozish kodlashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada

qo'shma so'z komponentlarining qo'shilib yoki ajratilib yozilishini, so'z qismlarining satrdan satrga ko'chirilishini, bosh va kichik harflarning qo'llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo'lmagan jihatlarini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.[5.18-28-b.]

2. Orfografiya printsiplari – orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar. Uning quyidagi turlari bor;

Fonetik printsip. Bu printsip asosida tuzilgan imlo qoidalar so'z yoki so'z shakllarining talaffuzi va yozilishini bir-biriga yaqinlashtiradi. Masalan: tojik tilidagi tanur so'zining o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik printsipga) asoslanadi. Shuningdek, tog'ga, bog'ga, ekguncha kabi so'z shakllari ham talaffuziga mos tarzda toqqa, boqqa, ekkuncha deb yoziladi. Quyidagi holatlarda ham fonetik printsipga amal qilinadi:

a) ayrim otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda:

burun –burnim; o'g'il –o'g'ling;

b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda:

ulug' –ulg'aymoq; sariq –sarg'aymoq;

v) qotmoq, achimoq, isimoq fe'llaridan sifat yasalganda:

qot(moq) –qattiq, achi(moq) –achchiq, isi(moq) –issiq;

g) son, ot, yosh, ong so'zlaridan fe'l yasalganda:

son –sana; ot –ata; yosh –yasha; ong –angla;

d) ikki, yetti sonlariga «-ov» affiksi qo'shilganda:

ikki – ikkov; yetti – yettov;

e) «-a» yoki «-ya» bilan tugagan fe'llarga «-v yoki» «-q» qo'shilib ot yasalganda: tanla –tanlov, sana –sanov, bo'l –bo'yoq. 2. Fonematik printsip. Bu printsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra harflar (yoki grafemalar) so'z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Chunonchi, kitob, omad so'zlarining oxiridagi «b» va «d» fonemalari jarangsiz «'» (kitop) va jarangsiz «t» (omat) tarzida talaffuz qilinsa – da, asliga mos ravishda «b» (kitob) va «d» (omad) harflari bilan yoziladi. 2. Morfologik printsip. Bu printsip asosida tuzilgan imlo qoidalar so'zning ma'noli qismlarini (o'zak va affikslar) ular qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, asliga mos ravishda yozishni talab qiladi. -ga: ishga, maktabga -gan, -guncha: ketgan, ketguncha

Grafik printsip. Bu printsip, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi. Chunonchi, sirg'aluvchi «j» bilan qorishiq «j»ning yozuvda bitta «j» grafemasi orqali ifodalanishi.

5. Tarixiy – an'anaviy printsip. Bu printsipga asoslangan imlo qoidalar so'zlarning yoki so'z shakllarining qadimdan odat bo'lib qolgan shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun me'yor tarzida belgilaydi.



Chunonchi, hurriyat so'zi tarkibida ikkita «r»ning mavjudligi hozirgi o'zbek tili uchun me'yor sanaladi, ammo shu so'z ishtirokida yasalgan jumhuriyat so'zida esa bir «r» yoziladi, chunki bu so'zni bir «r» bilan yozish qadimdan odat bo'lib qolgan. [6.72-78-b.]

Xulosa. Tarixiy an'anaviy printsiplarga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchray turadi: klassik adabiy tilga taqlid tarzida so'zlarning eski o'zbek tiliga xos shakllari ishlatiladi:

Masalan:

Gul fasli sanam

Sayr ila gulshanda bo'libdur. /uncha kuz ochib

Gul yuzida xanda bo'libdur. Gullar ichida

Sho'xi o'zim der edi lola, Mag'rurlikidan

Ul o'zi sharmanda bo'libdur. (E. Voo'idov)

(Eski o'zbek tiliga xos birliklar- ila, ul, -dur)

Differentsiatsiya printsiplari. (simvolik printsiplari) Bu printsiplari asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra, shakli bir xil bo'lgan so'zlar (omonimlar) yozuvda signalizatorlar (ishora belgilari) vositasida farqlanadi: atlas (mato) -atlas (geografik xarita)

Shakli an'anaviy yozuv. Bu printsiplari so'z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo'ladi. Ma'lumki, o'tmishda turkiy tillarda so'z boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qullanish uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo'lgan. Bu odat hozirgi jonli so'zlashuvda ham uchray turadi: shkaf>ishkaf, staj>istaj kabi. Ba'zan so'z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshlardan biri (so'nggisi) tushirib qoldiriladi: sabr>sabir, nasr>nasir, gqsht>gqsh, g'isht>g'ish kabi. Shakli an'anaviy yozuv printsiplari ko'ra bunday paytda so'zlar talaffuzi asosida emas, o'zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: shkaf, staj, nasr kabi. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalarini shakllantirishda fonetik, fonematik va morfologik printsiplarga ko'proq amal qilingan.

References/ Илтепартыпа/Adabiyotlar:

1. Abduraxmonov /. Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. T., «O'zbekiston» 1995 y (42-43-betlar).
2. Tursunov U., Muxtarov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili -T.: «O'zbekiston» 1992 (44-45 b)
3. Jamolxonov X. A. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek alifbosidan lotin rafikasi asosidagi o'zbek alifbosiga qitishning asosiy sanalari. (Turkiy tillarning tarahqiyot muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –T.: «Fan» 1995 y (45-20 betlar)
4. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. T.: «Universitet» 1999 y (Talabalar va mustaqil o'rganuvchilar uchun yqlanma).



5. Jamolxonov Hasanboy. Grafika va orfografiya. (Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari) Toshkent. 1999 y (3–26 betlar)

6. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari.-T.: «Fan», 1956 (3-21 betlar) Imlo lug'ati. Maktab o'quvchilari uchun. T.: «O'qituvchi» 1987 y (5-21 b)